

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA OILAVIY MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI VA TARBIYADAGI XATOLARNING OQIBATLARI

Ibragimova Shahnozaxon Gapparovna hamda

Qo'qon davlat universiteti

Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti,

Amaliy psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Ahmadjonova Gulsanam Faxriddin qizi

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika psixologiya va san'atshunoslik fakulteti,

Amaliy psixologiya ta'lim yo'nalishi

1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda oilaviy munosabatlarning psixologik ahamiyati, ota-onalar tomonidan yo'l qo'yiladigan tarbiyaviy xatolar hamda ularning bola shaxsiyati rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Oilaviy muhit bolaning emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi omil sifatida qaraladi. Tadqiqotda ota-onalar tarbiyadagi sust nazorat, ortiqcha talabchanlik, befarqlik yoki haddan ziyod himoyachilik kabi xatti-harakatlarning bolaning ruhiy holatida yuzaga keltiradigan salbiy oqibatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, oilaviy munosabatlar, psixologik travma, emotsional rivojlanish, tarbiya jarayoni, korreksion yondashuv, bola shaxsiyati.

“Xalq orasida hammamizga ma'lum bo'lgan bir ibora bor: "Bola-da, esdan chiqarib yuboradi..." Bola kattalar tomonidan qanchalik xafa qilinsa ham, ertasiga hech narsa bo'lmagandek yana o'sha kattalar atrofida parvona bo'laveradi. Bolalardagi bu holat biz kattalarni aldab qo'yadi, negaki biz ularni kechagi voqealarni unutib yuboribdi, deb o'ylaymiz. Aslida unday emas. Bolaning aqli unutsa ham, his-tuyg'ulari hech narsani unutmaydi. Shuning uchun ham bolalikdagi hissiyotlar "ildiz hissiyotlar" deb ataladi.

Zero, insonning bolaligi aql bilan o'rganish emas, balki his-tuyg'ular bilan shaxsiyatini shakllantirish davridir!”

Misol uchun, qorong'udan qo'rqish aql bilan bog'liq emas, uni ruhiyatning jarohatlanishi desak ham bo'ladi...Yoki tirnoq tishlashni aql bilan izohlab bo'lmaydi, bu holatlar ruhiy zaiflikning tashqi ko'rinishi hisoblanadi. Boshqacharoq aytganda, jahli chiqqan bolani aqliy nasihatlar bilan to'xtatib bo'lmaydi. Chunki uning ichki dunyosida ro'y berayotgan jarayonlar katta kuch bilan vulqondek tashqariga otilayotgan bo'ladi.

Shu va yana boshqa barcha ijobiy-salbiy his-tuyg'ular bolalik chog'laridanoq shakllanib boradi. Bola erkalatilsa, erkatoy bo'ladi, hadeb ayblanaversa, o'zini aybdor deb biladi yoki u qadrlanmasa, qadrazilik tuyg'usi bilan ulg'ayadi. E'tibor berilgan, qadrlangan bola esa aziz va qadrli bo'ladi. Bolaga baho beriah unga ehson emas, balki inson sifatida uning eng tabiiy haqqi hisoblanadi.

Bir so'z bilan aytsak, kelajak "Ha, endi, bola-da" deb bee'tibor bo'lmagan ota-ona va tarbiyachilar bilan bunyod bo'ladi.

Adem Gunesh

Darhaqiqat, maktabgacha yosh davri inson hayotidagi eng muhim va mas'uliyatli bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda bola shaxsining asosiy psixologik poydevori, hissiy barqarorligi, o'ziga va atrofdagilarga bo'lgan ishonchi shakllanadi. Bu jarayonda oilaning, ayniqsa ota-onalarning munosabatlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bola o'zini qanday his qilishi, dunyoni qanday idrok etishi, o'z shaxsiga bo'lgan munosabatining shakllanishi bevosita oiladagi emotsional iqlim va munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Oilaviy muhit bolaning ruhiy holatini belgilovchi birlamchi omildir. Agar oilada mehr, e'tibor, o'zaro hurmat va tinchlik hukm sursa, bola o'zini xavfsiz, qadrli va sevilgan shaxs sifatida his qiladi. Bunday muhitda ulg'aygan bola mustahkam irodali, ishonchli va ijtimoiy faol bo'lib shakllanadi. Aksincha, doimiy tortishuv, befarqlik, tajovuz yoki emotsional sovuqlik hukmron bo'lgan oilalarda bola o'zini keraksiz yoki aybdor deb his qilishi mumkin, bu esa uning shaxsiy rivojlanishida jiddiy psixologik travmalarga sabab bo'ladi. Ota-onalar tomonidan yo'l qo'yiladigan tarbiyaviy xatolar bolalarda turli ruhiy buzilishlarning shakllanishiga turtki bo'ladi. Eng ko'p uchraydigan xatolardan biri — ortiqcha himoyachilik bo'lib, bunda ota-onalar bolaning mustaqil qaror qabul qilishiga, xato qilish va undan o'rganish imkoniga to'sqinlik qiladi. Natijada bola o'ziga ishonmaydigan, tashabbus ko'rsatishga qo'rqadigan, ijtimoiy jihatdan passiv shaxsga aylanadi. Ikkinchi turdagi keng tarqalgan xato — beparvolik va emotsional sovuqlikdir. Bola ota-onadan yetarlicha e'tibor va mehr ko'rmasa, u o'zini rad etilgan deb his qiladi, bu esa ichki xavotir, qo'rquv va o'z-o'zini qadrlashning pasayishiga olib keladi. Uchinchi muhim xato — ortiqcha talabchanlik va tanqid, bunda ota-onalar bolaning yosh imkoniyatlarini inobatga olmay, doimiy bosim ostida tarbiya olib boradilar. Bunday sharoitda bola o'zini doimo aybdor his qiladi, tashvish darajasi ortadi va kelajakda depressiv holatlar yoki nevrotik xulq shakllanishi mumkin. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalarning tarbiyaviy uslublari bolaning ijtimoiy moslashuvi va emotsional barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy munosabat va iliq muhit mavjud bo'lgan oilalarda bolalarda empatiya, hamkorlik, o'zini ifoda etish va muvozanatli xulq shakllanadi. Aksincha, salbiy munosabatlar va nizolar ustun bo'lgan oilalarda agressivlik, ichki bezovtalik va kommunikativ muammolar tez-tez uchraydi. Shunday ekan, bolalarda shakllanadigan psixologik travmalarni bartaraf etishning eng samarali yo'li — oiladagi muhitni sog'lomlashtirishdir. Psixologik korreksiyada ota-onalar bilan individual suhbatlar, oilaviy treninglar, emotsional yaqinlikni tiklashga qaratilgan mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi. Ota-onalarga bola psixologiyasi, yosh davr xususiyatlari va samarali tarbiya metodlari haqida ma'lumot berish orqali ular o'z xatti-harakatlarini qayta baholay oladilar.

Shuningdek, bolalar bilan o'tkaziladigan o'yin terapiyasi, art-terapiya, musiqiy yoki qum terapiyasi kabi metodlar ularning ichki his-tuyg'ularini ifoda etish va salbiy emotsiyalarni yengillashtirishga yordam beradi. Shu tarzda, oilaviy muhitdagi salbiy omillarni bartaraf etish hamda bola va ota-onalar o'rtasidagi sog'lom muloqotni tiklash orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ruhiy barqarorlik va sog'lom shaxsiy rivojlanishga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yosh davrida bola ruhiyati, emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuvi, eng avvalo, oiladagi psixologik muhit bilan belgilanadi. Ota-onalar o'zaro munosabatlarida namoyon etadigan hurmat, mehr, e'tibor va sabr-toqat bolaning ichki dunyosiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, oiladagi befarqlik, keskinlik yoki ortiqcha nazorat kabi holatlar bolada ishonchsizlik, qo'rquv, o'ziga past baho berish va emotsional beqarorlik kabi salbiy sifatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

Shu bois, zamonaviy tarbiya jarayonida ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirish, oilaviy muloqotni sog'lom asosda tashkil etish hamda bolaga yoshiga mos emotsional qo'llab-quvvatlash berish eng muhim vazifa hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom rivojlanishi uchun oila muhiti faqat fiziologik ehtiyojlarni emas, balki ruhiy ehtiyojlarni ham qondira oladigan mehrga asoslangan tizim bo'lishi lozim.

Psixologik amaliyot shuni ko'rsatadiki, oilaviy tarbiyada o'zaro ishonch, iliq muloqot va emotsional yaqinlikni tiklash orqali ko'plab muammolarni bartaraf etish mumkin. Shunday ekan, har bir ota-ona farzand tarbiyasini nafaqat majburiyat, balki ruhiy mas'uliyat sifatida qabul qilishi, bolaning his-tuyg'ularini anglash va qadrlashni o'rganishi zarur. Faqat shundagina maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom, ishonchli va ijobiy shaxsiy rivojlanish uchun zarur psixologik poydevor yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziyev E. (2010). "Umumiy psixologiya". Toshkent
2. Karimova V. M. (2013). "Oila psixologiyasi". Toshkent
3. Zokirova F. (2017). "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi". Toshkent
4. Nurmatova M. (2020). "Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi psixologik munosabatlar". Toshkent.
5. Gunesh A. (2022). "Yosh bola demang ularni"